usulni qo'llab identifikatsiyalash masalasini echishda avtomatlashtirish lozim bo'lgan ob'ektni kirishiga qo'shimcha ta'sirlar berilmaydi. Bu usul ob'ektni normal faoliyatida kirish va chiqish signallari o'zgarishini o'lchash va nazorat qilish asosida boshqarish modellari olinadi.


Mazkur malakaviy bitiruv ishida ko'rilayotgan jarayonni bir kursatkichli detirminlashgan ob'ekt sifatida qabul qilib, quyida keltirilgan sxema ko'rinishida tasvirlaymiz:



Bu erda X-kirish signali, Y-chiqish signali, ya'ni ular $Y=f(X)$ funksional bog'langan.

Qo'yilgan masalaning murakkabligiga qarab, boshqarish ob'ektini bir, ikki va uch sig'imli ob'ektlarning ketma-ket ulangan zvenolar ko'rinishida tasvirlash mumkin.

Bizning xolatimizda boshqarish ob'ektini ikki ketma-ket ulangan zvenolar ko'rinishida tasvirlaymiz, ya'ni reaktorda issiqlik va moddaalmashinish jarayonlari kechadi:



W_1 va W_2 – zvenolarning uzatish funksiyasi, ular o'z navbatida quyidagicha ifodalanadi:

$$W_1 = \frac{K_1}{T_1 * p + 1}$$


$$W_2 = \frac{K_2}{T_2 * p + 1}$$

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

Bu erda k_1, k_2 – zvenolarning kuchaytirish koeffitsientlari;

T_1, T_2 – vaqt doimiysi;

Yuqorida strukturaviy sxemasi tasvirlangan ikki sig'imli ob'ektni avtomatik boshqarish uchun quyida tasvirlangan strukturaviy sxema asosida hisoblash tajribasini o'tkazish talab etiladi:



Bu yerda R –rostlagich.


Qurilmadagi kechadigan jarayonga ta'sir etuvchi ko'rsatkich deb, – avtoklav uzatiluvchi erituvchining harorati qabul qilindi. Shuning uchun xaroratni rostlash lokal tizimini ishlab chiqamiz. Jaryondagi o'zgartiriladigan ob'ektning asosiy ko'rsatkichi:

$T_{\max} = 60\text{ }^{\circ}\text{C}$; $T_{\min} = 56\text{ }^{\circ}\text{C}$; $T_{\text{urt}} = 58\text{ }^{\circ}\text{C}$; miqdorda o'zgarishi mumkin, xaroratni o'zgarishi chegarasi $\Delta T = \pm 2\text{ }^{\circ}\text{C}$.


Boshqarish jarayonini hisoblash tajribasini Matlab amaliy dasturiy paketi yordamida kompyuterda ikki sig'imli ob'ekt uchun amalga oshiramiz. Ob'ektni optimal boshqarish uchun unga to'g'ri keladigan rostlagich tanlanadi.

Bu asosida quyida keltirilgan blok sxemaga asosan rostlash optimal ko'rinishi tanlandi, rostlagichni qiymatini aniqlashda datchik va ijrochi qurilmani kuchaytiruvchi bo'linma deb qarab 2 sig'imli ob'ekt PI rostlagich uchun hisoblendi:

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaqlar
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		




Boshqaruv tizimining kompyuter modeli Matlab amaliy dasturiy paketi asosidagi blok sxemasi quyda keltirilgan:




Optimal boshqarish tizimini sintez qilish tartibi, rostlagichni tanlash, rostlagichning sozlash parametrlarining optimal qiymatlari quyida keltirilgan kompyuter modeli natijalari asosida aniqlanadi:

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		



					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

BOSHQARISH OB’EKTINING FUNKSIONAL SXEMASI



					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

Nazorat o'lchov asboblari spetsifikatsiyasi

№	Ko'rsatkich	O'rnatish joyi	O'lchov asbobining nomi va tavsifi	Turi	Soni
1-1	Harorat	joyida	Raqamli xarorat o'lchagich	TE 170011	1
1-2	Harorat	KP	Raqamli rostlagich	TRF 170011	1
1-3	Harorat		Raqamli masofaviy boshqarish	TP 170011	1
1-4	Harorat	joyida	Raqamli ijrochi qurilma	TE 170011	1

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

Mexnatni muxofaza qilish

Bugungi kunda har bir mamlakatda mehnat muhofazasiga doir qonun va hujjatlar o'ziga mos ravishda ishlab chiqilgan. Respublikamizning Konstitutsiyasida xam ushbu masala puxta ishlab chiqilgan va uning haqiqiy ko'rinishi qo'yidagicha qabul qilingan qonunlarda o'z ifodasini topgan: 1992 yil 13 yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi; 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquq va kafolatlari to'g'risidagi»; 1993 yil 6 mayda esa O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi»; 1994 yil 1 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi; 1995 yil 21 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi» qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilishning huquqiy, texnik va sanitar-gigienik qoidalari bilan belgilab qo'yilgan qonunlar qabul qilingan. Buni biz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18, 37, 38-moddalarida ko'rishimiz mumkin.

Mehnat muhofazasining negizi besh qismdan iborat:

1. Mehnat muhofazasining umumiy masalalari: mehnatni muhofaza qilish qonunlari asoslari, xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini tashkil qilish, mehnat sharoitini tahlil qilish;

2. Mehnat tarbiyasi, mehnat samaradorligi, mehnat bandligi.

3. Mehnat sharoiti sanitariyasi va ishlab chiqarish gigienasi;

4. Xavfsizlik texnikasining umummuhandislik masalalari;

5. Sanoatda yong'inga qarshi kurash chora-tadbirlari.

Har bir korxona o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda mehnatni muhofaza qilish bo'limini yoki xavfsizlik texnikasi muhandisi lavozimidagi shtat birligini tashkil qilishi shart. Uning asosiy vazifasi korxonada mehnat qilayotgan

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	vara
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

xodimlarning mehnatni muhofaza qilish qoidasi talablarini qanday bajarayotganliklarini nazorat qilishdan iborat.

O'zbekistonda mehnatni muhofaza qilish borasida bir qancha qonuniyatlar qabul qilingan. Bu qonunlar faqat ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi texnika xavfsizligi qoidalarini nazorat qilib qolmay, balki mehnat muhofazasi qonunlari buzulmasligi uchun javobgardir.

Korxonada "Mehnatni muhofaza qilish" borasidagi tadbirlar qabul qilingan bo'lib, ular mehnat sharoitlarini yaxshilash va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish borasidagi uslubiy qo'llanmalar, instruksiya ko'rsatmalar, tavsiyalar kabi umumiy qoidalarni o'z ichiga oladi.

Korxonada xodimlar xavfli va zararli ishlab chikarish omillari ularning tavsifi, yuzaga kelish ma'nbalari, ishchilarga ta'sir qilish xususiyatlari va salomatlik uchun xavfli darajasi va kelgusidagi oqibatlari to'g'risida ma'lumotga ega. Ish joylaridagi ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoning xavfli hamda zararli omillari to'g'risida ma'lumotlar, ishlab chiqarish muhitining fizik, kimyoviy, radiologik, mikrobiologik va mikroiqlim o'lchovi natijalari, shuningdek og'irligi ish joylarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiya qilinishi bilan tasdiqlanadi.

Korxona o'ta xavfli sharoitda bajariladigan kasblar va ishlar ro'yxatiga ega. Ro'yxatda, aniq texnologik jarayon, ishlab chiqarish uskunasi, ishlatiladigan xom ashyo va ishlarni amalga oshirish xususiyatlari bilan bog'liq xavflar xisobga olingan.

Barcha xodimlar xavfli ishlarni bajarishdan oldin, mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalar olish va ishlarni xavfsiz bajarish usullarini o'zlashtirib olganlar.

Korxonada xodimlar xavfli va zararli ishlab chikarish omillari ularning tavsifi, yuzaga kelish ma'nbalari, ishchilarga ta'sir qilish xususiyatlari va salomatlik uchun xavfli darajasi va kelgusidagi oqibatlari to'g'risida ma'lumotga

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	vara
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

ega. Ish joylaridagi ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoning xavfli hamda zararli omillari to'g'risida ma'lumotlar, ishlab chiqarish muhitining fizik, kimyoviy, radiologik, mikrobiologik va mikroiqlim o'lchovi natijalari, shuningdek og'irligi ish joylarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiya qilinishi bilan tasdiqlanadi.

Korxona xavfli sharoitda bajariladigan kasblar va ishlar ro'yxatiga ega. Ro'yxatda aniq texnologik jarayon, ishlab chiqarish uskunasi, ishlatiladigan xom ashyo va ishlarni amalga oshirish xususiyatlari bilan bog'liq xavflar xisobga olingan.

Barcha xodimlar o'ta xavfli ishlarni bajarishdan oldin, mehnat muxofazasi bo'yicha yo'l-yo'riq olish va ishlarni xavfsiz bajarish usullarini o'zlashtirib olganlar.

Ishlab chiqarish korxonasi chiqindi tashlash bo'yicha SN-245-71 ga asosan IV kategoriyaga kiradi. Sanitar ximoya zonasi SNIp-2.01.03-96 ga asosan 100 m belgilangan.

Korxona shamol yo'nalishi bo'yicha SNIp 2.01.01.83 ga asosan joylashgan. Bunda zaxarli gaz va changlarni chiqishi xisobga olinib korxona axoli punktiga teskari qilib joylashtirilgan. Bu esa zaxarli gazlarni aholi punktiga etib kelmasligini ta'minlaydi.

Texnologik jarayon uzluksiz tarzda davom etadi. Ish ikki smenada olib boriladi. GOST 12-2.03.91 QMQ-3-05-98 ga asosan "Texnologik jarayonlarni tashkilashtirish sanitariya qoidalari va ishlab chiqarish jihozlariga gigenik talablar" ga muvofiq tashkil qilingan. Xom ashyo va materiallarni qayta ishlash texnologik uskunaning pasportida belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Sex, bo'limlarni eshik, derazalari maxsus tovush o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlangan.

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

Korxona bo'limlarini yoritish asosan tabiiy va sun'iy ravishda amalga oshiriladi. Kunduz kuni asosan tabiiy yorug'likdan foydalaniladi. Tabiiy yoritilish SNiP 2-01-05.98 ga asosan qabul qilingan. Kechki smenalarda esa, sun'iy yoritishdan foydalaniladi, yoritilish uchun lyumenissent lampalardan foydalaniladi.

Korxonada sexlarini havosi mo'tadillashtirilib turiladi. SHamollatish qurilmalaridan foydalaniladi. Isitish SanPiN -0058-96 ga asosan amalga oshiriladi. SHamollatish qurilmalaridan to'g'ri foydalanish, uni to'liq ishlaydigan holatda bo'lishi uchun javobgarlik, mexanik zimmasiga, sexda esa sex boshlig'i va mexanik zimmasiga yuklatilgan.

Elektr uskunalarining nosozligi yoki ularning ishlatish qoida talablariga amal qilmaslik ishchi-xizmatchilarning shkastlanishiga olib keladi. Insonlarni elektr toki ta'sirida shkastlanishidan himoya qilish uchun ishlab chiqarish sharoitlarida xavfsiz tok usti qoplangan simlar, yerga ulangan va neytrallovchi ximoya tizimlaridan foydalanilgan. Shuningdek, elektr uskunalarini tanlash, o'rnatishda mavjud bo'lgan qonun-qoidalar normalariga amal qilingan.

Ishchilar va xizmatchilarni shaxsiy ximoya vositalari bilan ta'minlash.

Ta'sir etuvchi zaxarli gaz va chang bilan ishlovchi sexlarda, ishchi va xizmatchilar ob'ekt fuqaro muhofazasi bo'limi (FM shtab) xodimlari tomonidan shaxsiy ximoya vositalari bilan ta'minlanganlar.

Nafas olish organlarini muxofazalash maqsadida shaxsiy ximoya vositalaridangazniqoblar nazarda tutilgan.

Gazniqoblar ikki turga bo'linadi:

1. Filtirlovchi gazniqoblar (GP 5, GP 7, GP 9, PDF 2SH);
2. Ajratuvchi gazniqoblar (IP 46 IP 48).

Nafas olish organlarining eng oddiy himoya vositalari:

1. Respirator;
2. Changga qarshi matoli niqoblar;

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

3. Paxta dokali bog'gich.

Korxonada SNIp- 2.08.12.98 ga asosan ishchi-xizmatchilar uchun dam olish, ovqatlanish, uy va ish kiyimlarini saqlash xonasi, zararsizlantirish, yuvish-yuvinish va boshqa madaniy-sanitariya xizmatlari uchun mo'ljallangan qo'shimcha binolar qurilgan.

Korxonada yong'in va portlash xavfsizligi, ularni rejalashtirish, tashkillashtirish va olib borish SNIp-2.01.02-04 ga asosan, "YOng'in xavfsizligi" umumiy talablariga ONTP 24/86 ga asosan "Portlash xavfi" umumiy talablariga va ushbu qoidalarga muvofiq ta'minlangan. Ishlab chiqarishda o'rganilmagan yong'in va portlash xavfi va toksik xususiyatlariga ega bo'lgan modda va materiallar qo'llanilmaydi.

Korxona binolarining yong'in xavfsizligi ularning o'tga chilamlilik darajasi bilan aniqlangan. SNIp 2.09.12-98 ga asosan qurilish materiallari bo'yicha yonmaydigan, qiyin yonadigan xillari mavjud.

Yong'in yoki avariya sodir bo'lishida odmlrni xavfsiz boshqa joyga chiqish yo'llari binolarni loyihalash va qurish vaqtida hisobga olingan. YOng'in havfsizligi norma qodalariga asosan evakuatsiya yo'llari o'tga chidamli materiallardan tayyorlangan, harakat yo'lida hech qanday to'siqlar yo'q. Korxona binosida 2 ta chiqish evakuatsiya yo'llari mavjud.

Barcha ishlab chiqarish sexlarida, xom ashyo va tayyor maxsulot omborxonalari ma'muriy va boshqa yordamchi binolar hamda inshootlar dastlabki yong'inni o'chirish vositalari bilan ta'minlangan.

Ventilyasiya tizimi yong'indan darak beruvchi signalizatsiya bilan birlashtirilgan va (SNIP 2.04.02 84., GOST 12.2.2002.89, SNIp 2.04.09.07) bo'yicha o'rnatilgan.

Bino va yong'in suv ma'nbalari yo'lkalari hamda yong'in vositalari va uskunalariga boradigan yo'lkalar doimo bo'sh bo'lishi ta'minlangan, binolar

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

oralig'idagi yong'inga qarshi masofa uzulmalarida materiallar, uskunalar, bo'sh idishlar taxlashga ruxsat etilmaydi.

Korxonada yong'inga qarshi suv ta'minoti SNIP-2.04.02.86 ga asosan belgilangan. Katta miqdorda suv saqlaydigan suv havzasi mavjud.

O'tni o'chirish birlamchi vositalaridan xarakatlanadigan, qo'lda ishlataligan o't o'chirgichlar, gilropulpalar, chelak, suvli bochka, belkurak, qumli yashik, asbest yopgich, namat va boshqa yonmaydigan buyumlari mavjud.

Yong'in haqida tez xabar berish uchun yuqori havfli hisoblangan texnologik uskunalarda, ishlab chiqarish binolarida, omborlarda darakchi vositalari SNIP-2.04.02-84, GOST 12.2.2002.89 ga asosan o'rnatilgan. Bu vositalar yonayotgan manba, joyini o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

Korxonada ko'ngilli o't o'chirish drujinasi tashkil qilinadi.

Fuqaro muxofazasi

Atrofdagi tabiiy muhit va potensial xavfli ob'ektlarning, favqulodda vaziyat manbalari paydo bo'lishini oldindan prognoz qilish va profilaktika qilishning ahvolini kuzatish va nazorat qilishni tashkil etilishiga, shuningdek favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, muxandislik-texnikaviy, ekologiya-muhofaza, sanitariya-gigiena, sanitariya-epidemiologik va maxsus tadbirlar kompleksidir.

Har bir sohada hushyorlik, ogoh bo'lishlik orqali shaxsiy va jamoat xavfsizligi ta'minlanadi. Bunga erishish uchun mavjud ma'lumotlarning hammasidan foydalanish lozim. Ayniqsa, joyning tabiiy tuzilishi, tabiiy manbalar (suv, havo, tuproq, relef va x.k.) ning xolati, o'zgarishi, o'zaro bog'liqligini, ishlab chiqarish ob'ektlari xususiyati orqali esa inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan noxush vaziyatlarning negizidan xabardor bo'linadi. Asosiy e'tibor tez o'zgaruvchan sanitariya – gigiena, sanitariya – epidemiologik ma'lumotlarga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish, avvalo oilada, umumta’lim maktablarida, oliy va o‘rta o‘quv maskanlarida, ishlab chiqarish tarmoqlari va mahallalarda olib boriladi. Tayyorgarlik jarayoni maxsus dasturlar asosida olib borilib, har qanday qo‘shimcha murakkabliklardan xoli bo‘lishi zarur. Tayyorgarlikni yuksak darajada bo‘lishi uchun teleradio va ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish, muntazam suhbatlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, aholi xavfsizligini ta’minlash, insonlar salomatligini yuksak darajaga ko‘tarish masalalari bo‘yicha ham bir qancha qonuniy hujjatlar qabul qilinadi, jumladan, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida” gi qonunning asosiy maqsadi – aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishdan iboratdir.

Korxona quyidagi turdagi favqulotda vaziyatlar sodir bo‘lishi mumkin:

- Tabiiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlar;
- Texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlar;
- Ekologik xarakterdagi favqulodda vaziyatlar.

Atrofdagi tabiiy muhit va potensial xavfli ob’ektlarning, favqulodda vaziyat manbalari paydo bo‘lishini oldindan prognoz qilish va profilaktika qilishning ahvolini kuzatish va nazorat qilishni tashkil etilishiga, shuningdek favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, muxandislik-texnikaviy, ekologiya-muhofaza, sanitariya-gigiena, sanitariya-epidemiologik va maxsus tadbirlar kompleksidir.

O‘zbekiston Respublikasida Fuqaro muhofazasiga oid quyidagi xuquqiy me’yoriy hujjatlar va Vazirlar mahkamasining qarorlari kuchga kiritilgan.

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		


Korxona SN 245-71 ga asosan IV sinfga talluqli. SHuning uchun korxonada sanitar himoya zonasi 100 m belgilanadi va ushbu maydon ko'kalamzorlashtiriladi.

Fuqoro himoyasining asosiy vazifalari:

1. Aholini umumqirg'in qurollardan saqlash.
2. Xalq xo'jaligi korxonalarining urush sharoitida ishlash turg'unligini oshirish.
3. Qutqaruv va tiklovchi ishlarini olib borish.

Korxonada fuqoro muhofazasini tashkil qilish omillari yuqoridagilardan iborat.

Korxonada fuqaro muxofazasi tashkil etish sxemasi



					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaқ
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

Korxona territoriyasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen xavfli xodisalarga: zilzila, yong'in, portlash, kimyoviy zaharlanishlar kiradi.

Korxonadagi avariylar, yong'in va portlash kabi favqulotda vaziyatlari yuzaga kelgan vaqtida sodir bo'lgan xavf darajasini ko'rsatadigan ikkita bildirish rejimini belgilanadi.

1. Yuqori tayyorgarlik rejimi;
2. Favqulotda rejim.

Bunday xollar yuzaga kelgan vaqtida xokimiyatlarga, tuzilmalarga, tibbiy xizmatga, yong'in xavsizligi xizmatiga xabar berish kerak.

Korxonada mavjud kuchli ta'sir qiluvchi modda. Uning miqdori saqlanish tartibi.

Favqulotda Vaziyat yuz berganda "Diqqat Xammaga" ovozli signal orqali ishchi-xizmatchilarga xabar qilinadi.

Kuchli ta'sir etuvchi zaxarli modda va chang bilan ishlovchi sexlarda ishchi va xizmatchilar obyekt fuqaro muhofazasi bo'limi (FM shtab) xodimlari tomonidan shaxsiy ximoya vositalari bilan ta'minlangan bo'lishlari kerak.

Nafas olish organlarini muxofazalovchi shaxsiy ximoya vositalari – gazniqoblar, nafas olish organlarini turli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroblardan va toksinlardan muhofaza qiladi.

Gazniqoblar ikki turga bo'linadi:

1. Filtrovchi gazniqoblar (GP 5, GP 7, GP 9);
2. Ajratuvchi gazniqoblar (IP 46 IP 48).

Nafas olish organlarning eng oddiy himoya vositalari:

1. Respirator;
2. Changga qarshi matoli niqoblar;
3. Paxta dokali bog'gich.

Avariya qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarini rejalashtirish va amalga oshirishdan maqsad, aholini turli favqulotda vaziyatlardan himoyalash,

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatish, avariya oqibatlarini qisqartirish hamda vayronalardan insonlarni olib chiqishga qaratilgandir.

Avariya qutqaruv ishlari quydagi vazifalarni amalga oshirish orqali olib boriladi.

1. FV ro'y bergan xududlarida razvedka ishlarini olib borish hamda xarakatlanish yo'nalishlarini rejalashtirish.
2. Bino qismlari, vayrona uyumlari orasidan shuningdek yonayotgan binolar ichidan insonlarni qidirish va olib chiqish.
3. Jabrlangan insonlarni, guruxlarga ajratgan xolda birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish hamda yaqin ambulatoriyalarga etkazish.

Boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarga quydagilar kiradi:

1. Insonlarni ommoviy piyoda yoki transportda xarakatlanish yo'llarini ochish hamda xavfli jismlardan tozalash.
2. Gaz, elektr, suv quvur tiqimlari va boshqa tizimlarda yuz bergan avariyalarni to'xtatish, qutqaruv ishlarini o'tkazish.

Korxonada yong'in sodir bo'lganda xarakatlanish quydagi tartibda amalga oshiriladi. Sexda germetiklik buzilib yoki boshqa sabab bilan yong'in chiqqanda OPD turidagi signalizator ishga tushadi. Bu signalizator ishga tushishi bilan sexdagi navbatchi korxonaning yong'in xavfsizligi bo'limiga xabar beriladi va ishchilarning tartibli evakuatsiyasini ta'minlashni nazorat qilinadi. Yong'in ixavfsizligi bo'limi etib kelguncha ishchilar o'zlari OU 2, OU 9,OU 8 birlamchi o't o'chirgichlar yordamida yong'inni boshqa ob'ektga o'tib ketmasligini nazorat qiladi.

Yong'in xizmat xodimlari bilan bir vaqtda tibbiy tez yordam ko'rsatish xizmati ham etib keladi. FV oqibatlari tugatilishi bilan qutqaruv ishlari boshlanadi. Tartibni saqlashga e'tibor beriladi. Yong'in yoki avariya sodir bo'lishida odamlrni xavfsiz boshqa joyga chiqish yo'llari bo'lishi binolarni loyihalash va qurish vaqtida hisobga olingan. Yong'in havfsizligi norma qoidalariga asosan evakuatsiya

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	vara
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

yo'llari o'tga chidamli materiallardan tayyorlangan, harakat yo'lida hech qanday to'siqlar yo'q. Korxona binosida 2 ta chiqish evakuatsiya yo'llari mavjud.

Ishlatiladigan xom-ashyolar ma'lum talab asosida omborlarda saqlanadi. Quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri tushmaydigan, yopiq, quruq joyda, xarorat 30°C dan yuqori bo'lmagan, namlik 80% dan ko'p bo'lmagan joyda saqlanadi.

Ekologiya qismi

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining "O'zbekiston XXI - asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarlarida O'zbekistondagi ekologik muommolarga alohida e'tibor berganlar. Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z - o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir. Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson bilan tabiatning o'zaro ta'siriga oid bir qator muammolarni hal etish faqat bir mamlakat doirasida cheklanib qola olmaydi. Ularni butun sayyoramiz ko'lamida hal etish zarur. Ekologiya muammosi Yer yuzining hamma burchaklarida ham dolzarb. Faqat uning keskinlik darajasi dunyoning turli mamlakatlarida va mintaqalarida turlichadir.

Fan-texnika taraqqiyoti biz yashab turgan dunyoni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yubordi. Ekologik halokat, ayrim hududlarda qilingan taxminlarga qaraganda, oldini olib bo'lmaydigan darajada xavf tug'dirmoqda. Ammo uning tarqalishini kamaytirish texnogen va ijtimoiy - madaniy oqibatlar shiddatini to'xtatish zarur.

Buning uchun turli soxa mutaxassislari o'zlarining ekologik bilimlarini oshirib, rejalashtirilayotgan ishlari bilan tabiiy muhiti shikastlamaslik choralarini ko'rmoqlari kerak.

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

Salbiy ekologik oqibatlarining asosiy sabablaridan biri yer, suv, mineral xom-ashyolardan foydalanish printsiplarini buzilishidir. Aynan shu printsiplarning xalq xo'jaligining kam samarali - ekstensiv yo'ldan borishi uchun qulay sharoitlar yaratdi, resurslarni tejaydigan texnika va texnologiyani keng joriy qilinishiga to'sqinlik qildi, shuningdek, atrof muhitga zarar yetkazgan holda rejani bajarish kabi g'ayri ekologik yondashuvni keltirib chiqardi. Chang va tuzlar shamol bilan hududlarda yog'ilib, yomg'ir suvining minerallasuvini, yerlarning sho'rlanishini, tog'dagi muzliklarning erishini tezlatishga sabab bo'lmoqda. Markaziy Osiyo hududida quyosh haroratining yuqori bo'lishi inson organizmida qon almashinish kuchaytiradi, ko'p miqdorda terlatib, ayrim kimyoviy moddalarning teri orqali so'rilishiga, hatto me'yornomada ko'rsatilgan eng kichik raqam ham halokatli zaharlanishga olib kelishi mumkin.

Respublikada Chirchiq, Olmaliq, Ohangaron, Angren, Farg'ona, Marg'ilon, Navoiy va boshqa bir qator joylarda kimyoviy, neft-kimyoviy hamda mikrobiologik tarmoqlar korxonalarining, ko'p quvvat va suv talab qiladigan ishlab chiqarish vositalarining ko'pligi va rivojlanganligi tufayli ekologik sharoit keskinlashdi. Tojikistonning Tursunzoda shahrida joylashgan alyumin zavodining salbiy oqibatlari Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Sho'rchi va Oltinsoy tumanlarida sezildi. Natijada anor va xurmoning hosildorligi va sifati pasayib ketdi, aholi salomatligi esa yomonlashdi.

O'zbekistonda atrof-muxitni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan okilona foydalanishning xukukiy, iktisodiy va tashkiliy asoslarini 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muxofaza qilish» qonuni belgilab berdi. O'zbekistonda ekologik siyosat yuqorida aytib o'tilganidek bir kator qabul kilingan qonunlar, «Ep to'g'risida»gi (20-iyun 1990-y.), «Qazilma boyliklar to'g'risida»gi (22-sentyabr 1994 y.), «Suv va suvdan foydalanish» (6-may 1993 y.), «O'simlik olamini muxofaza qilish va foydalanish» (26-dekabr 1997 y.), «Xayvonot olamini muxofaza qilish va foydalanish» (26-dekabr 1997 y.), «Aloxida muxofaza

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

kilnadigan xududlar to'g'risidagi (7-may 1993 y.), «Atmosfera havosini muhofaza qilish» .(27-dekabr 1996 y.), «Davlat kadastr to'g'risida»gi (39-avgust 2000 y.), «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi (15-dekabr 2000 y.), “Ekologik nazorat to'g'risida” gi (27 dekabr 2013 y.) Qonunlar, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan ko'plab qarorlar asosida amalga oshiriladi.

Tabiiy muhitni muhofazalash uchun sarflanadigan xarajatlar miqdori uni shikastlab, qayta tiklashga ketadigan xarajatlarga nisbatan kamdir. Shuning uchun xavfli holatlarni oldindan bilish, tegishli choralarni ko'rish, asosiy vazifalaridan biridir.

Ekologiyani barcha soha tarmoqlarini faqat bitta soha mutaxassisi o'zlashtirib olishi qiyin. Shuning uchun ular ekologiyani o'zlariga tegishli yo'nalishlarini o'zlashtirsalar va unga amal qilib ishlasalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kelajakda atrof-muhitni muhofaza qilish muammosini eng avvalo tutash texnologik siklli chiqitsiz (ya'ni chiqindilarni ekologizatsiyalash) ishlab chiqarishlarni yaratish yo'li bilan hal qilinadi. Buning uchun ayrim hollarda butun texnologik jarayonni yoki uning bosqichlarini tubdan o'zgartirish, gazlardan zararli moddalarni ajratib olish va utillashtirish usullarini ishlab chiqish, suv qaytarish sistemalarini qo'llash lozim. Chiqitsiz ishlab chiqarishning kelajagi – bu hududiy-sanoat komplekslari bo'lib, ularda bir korxonaning chiqindisi ikkinchisi uchun xom-ashyo bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi soxalar uchun ekologizatsiyalashning muayyan modellari ishlab chiqilgan.

Fan-texnika vositalari atrof-muhitni zararli chiqindilar bilan ifloslanishini istisno etishga to'la imkon bermayotgan hozirgi vaqtda atrof-muhitning kishilar, hayvonlar va o'simliklar dunyosi uchun xavfsizligini kafolatlovchi standartlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ularni ishlab chiqishda Standartlar xalqaro tashkiloti, uning qumitalari va ba'zi mamlakatlarning standartlash idoralari muhim rol o'ynaydi. Sog'liqni saqlash xalqaro tashkiloti (VOZ) insonni sog'liqni saqlash

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

darajasini nazorat qilish uchun xalqaro xizmat yaratildi. Nazorat stantsiyalarining tarmog'i respublika miqyosida, atrof-muhitning ifloslanishi, iqtisodiyot va urbanizatsiya darajasi bilan belgilanadi.

Tashqi muhitni nazorat qilish va kuzatish Davlat xizmatiga O'zbekiston Respublikasi gidrometeorologiya va tabiiy muhitni nazorat qilish Davlat qumitasi boshchilik qiladi. Mazkur qumita qoshida atmosfera havosini ifloslanishdan muhofaza qilish bo'yicha Davlat inspeksiyasi yaratildi. Tabiiy muhitni o'rganish va ifloslanishini nazorat qilish bo'yicha markazlar bor. Respublikaning ko'pgina shaharlarida suv havzalarining ifloslanishini avtomatlashtirilgan sistemalar yordamida nazorat qilinadi.

Bugungi kunda atmosfera havosi zaharli moddalar bilan ifloslanmoqda.

Atmosfera havosiga chang asosan ikki yul bilan tushadi – tabiiy jarayonlar natijasida va insonlarni ishlab chiqarish faoliyatlari natijasida. Tabiiy jarayonlarga - vulqonlarning otilishi, o'rmon yonginlari, kosmik changning yogilishi va x.k.

Changni havoga tushiruvchi ishlab chiqarish korxonalariga quyidagilar kiradi:

- qurilish ashyolari ishlab chiqaruvchi korxonalar - 34,7 %
- IES - 29,5 %
- avtotransport - 15,8 %
- qora metallurgiya - 12,4 %
- kimyo sanoati - 4,6 %
- rangli metallurgiya - 2,2 %
- neftni qayta ishlash korxonalari - 0,5 %

Sanoat korxonalaridan atmosferaga tashlanayotgan changlar turli shaklga, o'lchamga, zichlikka ega bo'lganligi uchun, ularni turli usullar erdamida tozalab olinadi.

Havoni changdan tozalashning quyidagi usullari mavjuddir,

1) gravitatsion usuli

2) quruq inertsiya va markazdan kochma kuch asosida tozalash usudi

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

- 3) xo'llash usuli
- 4) filtrlash usuli
- 5) elektrostatik usul
- 6) tovush va ultratovush yordamida koagullash usuli.

Atmosfera havosini zaharli gazlardan tozalash jarayoni asosan gazlarni suyuqlik va qattiq jism chegara sirtlarida boruvchi kimieviy uzgarishlar xisobiga olib boriladi. Zaharli gaz moddalarning fizik-kimieviy xossalari, ularni ajratib olinish sharoitlariga binoan ularni tozalash uchun aksariyat hollarda quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Adsorbtsiya
2. Absorbtsiya
3. Katalitik
4. Termik

Sanoat ishlab chiqarish, korxonalarida, qishloq xujaligida maishiy xizmat korxonalarida hosil bo'lgan suvlar - oqova suvlar deyiladi. Oziq-ovqat sanoatida hosil bulayotgan oqova suvlarning tarkibi ishlab chiqarishning turiga va texnologik jarayoniga bog'liqdir.

Oziq-ovqat sanoatida suv-xom ashyo, erituvchi, reaksion muhit, ekstragent, absorbent sifatida, moddalar, uskunalarni sovitish va isitishda, tayyor maxsulotlarni va uskunalarni yuvishda ishlatiladi. Texnologik jarayonlarda ishlatilgan suv turli xil moddalar bilan ifloslanadi. Masalan, mineral o'g'itlarni ishlab chiqarishdagi oqova suvlar kislota, ishqor va tuzlar bilan ifloslanadi: neftni qayta ishlash korxonalarning suvlari -neft maxsulotlari, yog, moy, fenol, sirt-aktiv moddalar bilan ifloslangandir; plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish korxonalarining suvlari tarkibida monomerlar, yuqori-molekulyar birikmalar, sakich va x.k. moddalar bor.

Oqova suvlarning ifloslik darajasi quyidagi ko'rsatgichlar orkali aniqlanadi:

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	vara
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

- 1) orgonaleptik ko'rsatgichlar (rangi, xidi, mazasi, tiniqligi va x.k.)
- 2) fizik kimyoviy ko'rsatgichlar (rH, temperatura, elektr o'tkazuvchanlik, suvning qattiqligi, kuvishkockligi, zichligi, sirt tarangligi va x.k.)
- 3) erigan organik va anorganik moddalarning miqdori, kislorodning kimyoviy (XPK) va biokimyoviy (BPK) sarflanishi
- 4) kolloid, mayda va yirik dispersli zarrachalarning miqdori.

Oqova suvlarning xar bir guruhiga uziga xos tozalash usullari mavjud bo'lib, ular quyidagi guruhlarga bulinadi :

- 1) mexanik tozalash usullari (tindirish, filtrlash, tsentrifugalash);
- 2) fizik-kimyoviy usullar (flotatsiya, adsorbtsiya, flokulyatsiya, koagulyatsiya, ekstraktsiya, ion almashinish usuli);
- 3) kimyoviy usullar (neytrlash, oksidlash, qaytarish, termooksidlash)
- 4) biokimyoviy usullar - tirik organizmlarning organik ifloslantiruvchi moddalarning ozika sifatida iste'mol qilishiga asoslangandir.

Yuqorida keltirilgan usullar 2 turga bo'linadi: regenerativ usullar - ifloslantiruvchi moddalarni suvdan ajratib olib ularni qayta ishlatishga asoslangan ; destruktiv usullar esa ifloslantiruvchi strukturasini buzib yuborib zararsizlantirishga asoslangandir.

Tuproq uzoq yillar davomida atmosfera, gidrosfera, o'simlik va xayvonot olamining o'zaro bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan holda litosferaning ustki qavatlarining uzgarishi natijasida shakllanib kelgan.

Tuproqning holatiga omillar bilan birgalikda, inson faoliyati ham ta'sir ko'rsatadi. Tabiatda doimo tuproq qavatining suv, shamol, sel okimlari va x.k. ta'siri natijasida buzib yuborilishi jarayonlari amalga oshib kelgan. Ammo lekin,

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

tuproq holatining global buzilishi paydo bulishi, asosan insonlarning turli xil xarakatlariga bog'liqdir. Insonning xohishiga ko'ra tuproqning xarakteri o'zgartiriladi, tuproqni hosil qiluvchi faktorlar - relef, mikroiklim uzgaradi, dengizlar, suv omborlari, kanallar barpo etiladi, millionlab tonna grunt joydan joyga kuchiriladi va x.k.

Sanoatning rivojlanishi va ayniqsa, transport vositalarining o'sishi natijasida atmosferada karbonat angidrid, oltingugurt, azot birikmalari va organik yonilg'ilarni yonishi yoki chala yonishi natijasida ajralib chiqayotgan har xil birikmalar miqdori tobora ortib bormoqda.

Ushbu ishlab chiqarish texnologiyasida atmosfera havosiga zaharli moddalar deyarli tashlanmaydi.

Quyida korxonani suv bilan ta'minlanishi, asosan, shahar markaziy suv ta'minoti orqali bo'lib, ushbu suv ishlab chiqarish uchun mahsus tozalash usullari yordamida zarur talab normalarigacha qayta tozalanadi. Shu bilan birga suv sig'implarni yuvishda, mahsulot ishlab chiqarishda isitish, sovitish jarayonlarida ham qo'llaniladi.

1-jadval

KORXONANING SUV BILAN TA'MINLANISHI

Suv bilan ta'minlash manbasi	Suvdan foydalanish me'yori $m^3/soat$		Aylanma harakatdagi suvning hajmi $m^3/soat$	Toza suvni tejash
	Loyiha bo'yicha	Aslida		
1	2	3	4	5
Shahar markaziy suv ta'minoti	2.2	2.5	1.6	72.7%

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		


Korxonada sig‘imlarni yuvish jarayonida tarkibida turli muallad moddalar bo‘lgan oqova suvlar hosil bo‘ladi. Ushbu oqova suvlarni tozalash uchun tindirish usuli qo‘laniladi.

2-jadval

OQOVA SUVLAR VA ULARNI TOZALASH

Oqova suvlarning turlari	Oqova suvning hajmi m ³ /soat		Ifloslik-larning tarkibi g/l	Tozalash usullari	Tozalagich moslamalar va uskunalar	Tozalangan suvning ishlatilish yo‘llari
	Tozalanayotgan	Tashlab yuborilayotgan				
1	2	3	4	5	6	7
Yuvuvchi suvlar	1.8	-	20-30 mg/l muallaq moddalar	mexanik	tindirish	Korxonada texnik suv sifatida ishlatiladi

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	vara
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		



Korxonada qattiq chiqindilar hosil bo'lmaydi.

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaqa
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

Iqtisodiyot qismi

Texnolog bakalarlar bitiruv ishlarining iqtisodiy qismida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi:

1. Ishlab chiqarish dasturi - 1 yil mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi (natural ifodada va qiymati bo'yicha), uning assortimenti va nomenklaturasi.
2. To'g'ri moddiy sarflar hisobi - bevosita texnologiyaga doir sarflangan xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i va quvvatlar (qayta ishlanadigan chiqindi ayrilgan holda).
3. Transport yo'l xarajatlari.
4. Mehnatga doir to'g'ri sarflar:
 - a) i/ch ishchilarning ish haqi – bevosita mahsulot ishlab chiqaradigan ishchilarning mehnat haqi.
 - b) ijtimoiy sug'urta ajratmasi yoki yagona ijtimoiy to'lov (25 %)
5. Boshqa qolgan sarflar.
6. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining kalkulyasiyasi – 1 o'lcham va yillik mahsulot uchun.
7. Ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari – mahsulot xajmi, qiymati tannarxi, yillik foyda, 1 o'lcham mahsulotning i/ch tannarxi, umumiy sarflar, mahsulot rentabelligi, ishlovchilarning o'rtacha ish haqi (oylik).

1-jadval

Ishlab chiqarish dasturi – mahsulotning yillik ishlab chiqarish hajmi (natural va qiymat ifodasida)

№	Nomlanishi	O'lchov birligi	1 tonna maxsulot baxosi, so'm	Yillik miqdori	
				miqdori, t	narxi, ming so'm
	Tuganak bakteriyasi asosida bacterial	t	3111360	10	31114

					Tuganak bakteriyalar asosida bacterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

	preparat				
--	----------	--	--	--	--

Ushbu jadvalda loyixa bo'yicha ishlab chiqarishga rejalashtirilgan mahsulot turi, uning o'lchami, natural ifodadagi va qiymati bo'yicha mahsulotning hajmi va 1 o'lcham mahsulotning sotiladigan narxi qayd etiladi.

Hisob tartibi:

- 5 grafada loyixa bo'yicha mahsulotning 1 yillik hajmi qayd etiladi.
6 grafa = 4 grafa x 5 grafaga.
7 grafada loyixa bo'yicha mahsulotning 1 yillik hajmi qayd etiladi.
8 grafa = 4 grafa x 5 grafaga.

Maxsulot ishlab chiqarish tannarxining kalkulyasiyasi

Yillik ishlab chiqarish xajmi – 10 t/y

Maxsulotning kalkulyasiyasion o'lchami - 1 t

№	Sarf moddalar	Sarflar qiymati	
		1 o'lcham maxsulot uchun, so'm	Yillik xajmi, m. so'm
1.	To'g'ri moddiy sarflar	1546000	15460
2.	Mexnatga doir to'g'ri sarflar, shu jumladan:	132000	1320
	Ishlab chiqarish ishchilarining ish xaqi	99000	990
a)	Sug'urta ajratmalari (yagona ijtimoiy to'lov -25%)	33000	330
b)			
3.	Materialiga doir yondosh sarflar	105600	1056
4.	Mexnatga doir yondosh sarflar	79200	792
5.	Asosiy fondlar amortizatsiyasi	264000	2640
6.	Boshqa (shu jumladan ustama) sarflar	106000	1060
	Ishlab chiqarish tannarxi	2232800	22328
	Davr xarajatlari	360000	3600
	Umumiy sarflar	2592800	25928
	Foyda	518560	5186
	Maxsulot rentabelligi	20	

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

	Korxonaning ulgurji bahosi	3111360	31114
--	----------------------------	---------	-------

ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR HISOBI

1	Yillik i/ch mahsulot xajmi natural ifoda	t	10
2	1 o'lcham mahsulotning i/ch tannarxi (ishlab chiqarish sarflari)	so'm/t	2232800
3	Yillik mahsulotning tannarxi	ming so'm	22328
4	Yillik foyda	ming so'm	600000
5	Mahsulot renabelligi (samaradorligi %)	%	20
6	1 ishlovchining o'rtacha oylik ish xaqi	so'm	1200000
7	1 ishchining o'rtacha oylik ish xaqi	so'm	840000

Ko'rsatkichlar hisobi:

1. Yillik mahsulot hajmi **Qi/ch va Qi/ch x eb**
2. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi va umumiy sarflar hisobi:
 - a. To'g'ri moddiy sarflar;
 - b. Mehnatga doir to'g'ri sarflar;
 - s. Yondosh moddiy va mehnatga doir sarflar;
 - d. Asosiy fondlar ammortizatsiyasi;
 - V. Boshqa qolgan, shu jumladan ustama xarajatlar.

Jami sarflarning yig'indisi yoki ishlab chiqarish tannarxi

$$= \sum I - V =$$

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

Xulosa

Dukkakli o'simliklar oilasi 674 urug' va 16000-19000 turdan iborat. bo'linadi. Dukkaklilar butun dunyo bo'ylab tarqalgan va iqtisodiy qiymatiga ko'ra boshhoqlilardan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi.

Tuganak bakteriyalar asosida tayyorlangan preparatlarni ishlab chiqarishga tadbiq etish iqtisodiy samaradorligi xaqida quyidagilarni aytish mumkin. Qator sharoitlarni saqlagan holda samarasi yuqori bo'lgan bakterial preparatlarni foydalanilganda qishloq xo'jalik ekinlaridan ekologik toza, vitaminlarga boy, inson organizmi uchun umuman zararsiz bo'lgan yuqori hosil olish imkonini beradi. "Rhizobium meliloti bakteriyalari asosida tayyorlangan bacterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi" mavzusidagi mazkur bitiruv malakaviy ishimda bacterial preparatni preparatini olish texnologiyasi xaqida ma'lumotlar keltirdim.

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бахромов И.У., Саимназаров Ю.Б., Проворов Н.А., Пулатова Д.З., Курбонов Г.К. Действие инокуляции клубеньковыми бактериями на продуктивность маша (*Phaseolus aureus* Roxb.) в условиях Узбекистана//Узб.биол.журнал. 1997. - №2. – С. 15-20.
2. Бахромов И.У., Саимназаров Ю.Б., Проворов Н.А., Пулатова Д.З. Мош хосилдорлигини ошириш//Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1997. - №2. – Б. 32.
3. Бирюков В.В. Макрокинетические модели многосубстратного лимитирования и ингибирования процессов в микробиологических процессах //Лимитирование и ингибирование процессов микробиологического синтеза. – Пушкино, 1976. – С. 18-32.
4. Варфоломеев С.А., Калужный С.В. Биотехнология: Кинетические основы микробиологических процессов. – М.: Высшая школа, 1990. – 269 с.
5. Джуманиязова Г.И. Микробные биотехнологии на основе фосформобилизирующих ризобактерий рода *Bacillus*//Матер. IV-съезда микробиол. Узбекистана. – Ташкент, 2008. – С. 103.
6. Джуманиязова Г.И., Таджиев А.Ю., Тахтобин К.С., Тиллаев Т.С. Изучение мобилизации фосфора из $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ ризобактериями с использованием P-32//Матер. III-съезда микробиол. Узбекистана. – Ташкент, 2005. – С. 36.
7. Мишустин Е.Н, Наумова В.К. Биологическая фиксация атмосферного азота. – М.: Наука, 1968. – 531 с.
8. Мишустин Е.Н. Микроорганизмы как компонент биогеоценоза (методы

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

- изучения) //Под ред. Е.Н.Мишустина. – М.: Наука, 1984. – 160 с.
9. Недорезков В.Д. Биологическая защита пшеницы от болезней в условиях Южного Урала. – М.: Изд-во МСХА., 2002. – 172 с.
 10. Нерпен С.В., Чудновский А.Ф., Физика почвы. – М.: Наука, 1967. – 583 с.
 11. Паников Н.С. Особенности кинетики микробного метаболизма в природных средах //Экологическая роль микробных метаболитов. – М.: Изд-во МГУ, 1986. -140 с.
 12. Паников Н.С. Синтетическая хеостатная модель как средство описания сложного динамического поведения микроорганизмов //Микробиология. 1991. Т 60, Вып.3. – 431-441 с.
 13. Паников Н.С., Кинетика роста микроорганизмов. – М.: Наука, 1992. – 311 с.
 14. Петербургский А.В. Практикум по агрономической химии. – Л.: Колос, 1968. – 496 с.
 15. Петров В.Б., Чеботарь В.К., Казаков А.Е. Микробиологические препараты в биологизации земледелия России.//Журнал «Достижения науки и техники АПК» 2002. – №10. – —. 16-20.
 16. Печуркин Н.С. Вопросы новой парадигмы в почвенно-микробиологических исследованиях агроэкосистем //Микробиология почв и земледелие /Всероссийская конференция 13-14 апреля 1998. – Санкт-Петербург: РАСХМ-ВНИИСХМ, 1998. – 5-6 с.
 17. Пулатова Д.З., Омонтурдиев Б.О., Бойматова Т.Б., Проворов Н.А., Саимназаров Ю.Б. Влияние инокуляции на арахиса.//Сельское хозяйство Узбекистана. 1997. – №1. – С. 50-51.
 18. Пулатова Д.З., Саимназаров Ю.Б., Омонтурдиев Б.О., Бойматова Т.Б. Ерёнғоқ илдизидаги фенологик ўзгаришлар// Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1997. – №2. – С. 37.
 19. Пулатова Д.З., Саимназаров Ю.Б., Проворов Н.А., Бахромов И.У.,

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

- Омонтурдиев Б.О. эффективность симбиоза арахиса подземного (*Arachis hypogaea* L.) с клубеньковыми бактериями в условиях Узбекистана// Узб.биол.журнал. 1996. – №5. – С. 21-26.
20. Саимназаров Ю.Б., Бахромов И.У., Пулатова Д.З., Проворов Н.А. биохимические показатели семян маша и арахиса при взаимодействии с клубеньковыми бактериями.//Физиол. и биохим.культ.растений. 1997. Т.29. – №6. – С. 450-454.
21. Саимназаров Ю.Б., Проворов Н.А., Расулов А.С., Симаров Б.В. Подбор штаммов *R.meliloti* повышающих урожайность люцерны, возделываемой в Среднеазиатском регионе.//Узб.биол.журнал. 1993. – №6. – С. 6-9.
22. Тихонович И.А., Кожемяков А.П., Чеботарь В.К. и др. Биопрепараты в сельском хозяйстве (Методология и практика применения микроорганизмов в растениеводстве и кормопроизводстве). – М.: Россельхозакадемия, 2005. – 154 – С.2008.
23. Чумаков М.И. Оценка эффективности взаимодействия *Agrobacterium radiobacter* 5D-1 с пшеницей//Под ред. В.В.Игнатова. – М.:Наука, 2005. – 260 с.
24. Юлдашева Х.Э., Джуманиязов И.Д. Биологик технологиялар асосида шўрланган тупроқларнинг унумдорлигини ошириш // Ўзбекистон микробиологлари IV курултойи, 2008. – Б 247.
25. Yusupbekov N.R., Muxamedov B.E., Gulomov SH.M. Texnologik jaraenlarni boshqarish tizimlari. Darslik, -T.:Ukituvchi, 1997.
26. Ortiqov A., Musaev A.K., Yunusov I.I. Texnologik jaraenlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. Uslubiy qo‘rsatma. Toshkent. TKTI 2004.
27. Ortiqov A., Musaev A.K., Yunusov I.I. Texnologik jaraenlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. TKTI 2004.

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		

					Tuganak bakteriyalar asosida bakterial preparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	Hujjat №	imzo	sana		